



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLARI DAVLAT XIZMATIGA KIRISHDA TENG HUQUQQA EGADIRLAR.

S.Xamdamova

Toshkent davlat agrar universiteti
Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi
boshlig'i

Tel: 998999829988

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16911418>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Avgust 2025 yil
Ma'qullandi: 15- Avgust 2025 yil
Nashr qilindi: 20- Avgust 2025 yil

KEYWORDS

*Davlat fuqarolik xizmati,
meritokratiya, teng huquqlilik,
davlat xizmatchisi, davlat
fuqarolik xizmati.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada fuqarolarning davlat xizmatiga kirish huquqi, fuqarolarning konstitusiyada belgilangan huquqlari, qonunchilikda belgilangan kafolatlar hamda so'nggi yillarda davlat xizmati sohasida olib borilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Davlat xizmati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash va ularga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha amalga oshiriladigan muhim faoliyat hisoblanadi.

Davlat xizmatiga kirishda teng huquqlilik – barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar deganidir. Bu davlat xizmatiga kirishda nomzodlarga jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy-nazar, huquqlarining tengligi kafolatlanishidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi", deb ko'rsatilgan.

Meritokratiya – bu (lug'aviy ma'nosi lotin va grekcha so'zlar birikmasidan tashkil topgan bo'lib, lotinchada "meritus"- "munosib" va grekchada "kratos" – "hokimiyat, boshqaruv") boshqaruv tamoyili bo'lib, shaxslarning ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy holatidan qat'i nazar, davlat boshqaruvida rahbarlik lavozimlarini eng qobiliyatli va munosiblar egallashi zarur, degan mazmuni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoniga asosan, yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O'zbekiston — 2030» strategiyasi 1-ilovasiga muvofiq, davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanib, bunda:

kadrlar bilan ishlash bo'yicha 2 mingdan ortiq tarkibiy tuzilmalar faoliyatini to'liq raqamlashtirish;

davlat fuqarolik xizmatchilarini uzluksiz malaka oshirib borish tizimi bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish;

«Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonunda nazarda tutilgan davlat fuqarolik xizmati tizimini to'liq ishga tushirish doirasida ushbu tizim bilan 70 dan ziyod davlat organlari qamrab olinishini ta'minlash;

Milliy kadrlar zaxirasida rahbarlik lavozimlariga nomzodlar sonini kamida ming nafarga yetkazish;

davlat organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari faoliyatini jamoatchilik fikri asosida baholash amaliyotini yo'lga qo'yish belgilangan.

Joriy yil 19 iyun kuni "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan davlat fuqarolik xizmatini tubdan isloh qilish va 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish uchun keng qamrovli dastur hisoblanadi. Farmon bilan tizimdagi ba'zi avvalgi deklarativ yondashuvlarni chetga surib, aniq indikatorlarga, raqamlashtirishga va natijaga yo'naltirilgan mexanizmlarni amalga joriy etish ko'zlangan. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatini ochiq, samarali, insonga yo'naltirilgan tizimga aylantirish maqsad qilingan. Farmon orqali ilk marta davlat fuqarolik xizmati sohasini to'liq raqamlashtirish, malakali kadrlar siyosati, inson resurslarini boshqarish, ijtimoiy himoya, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari asosida qayta qurish ko'zda tutilgan.

Mazkur farmon bo'yicha davlat fuqarolik xizmatida asosiy o'zgarishlar va yangi qoidalar nimalardan iborat?

- Avvalo yangi kadrlar tayyorlash tizimi joriy etiladi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab, davlat xizmatiga birinchi marta qabul qilingan xodimlar bilan mehnat shartnomasi dastlab bir yil muddatga tuziladi va keyinchalik faoliyatining ijobiy natijalariga ko'ra nomuayyan muddatga uzaytiriladi. Bu o'zgarish kadrlar sifatini nazorat qilish va eng munosib xodimlarni saralashga qaratilgan.

Shuningdek, kompetensiya bosh mezon bo'ladi. Har bir lavozim uchun aniq kompetensiyalar profili ishlab chiqiladi. Vakant lavozimlarga qabul "vacancy.argos.uz" portali orqali shaffof tanlov asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, davlat xizmatchilari doimiy bilim va ko'nikma sinovlaridan o'tadi.

Kadrlar malakasini oshirish qanday yo'lga qo'yiladi?

- Malaka oshirish majburiy bo'lib, davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Yangi qabul qilingan davlat xizmatchilari majburiy "Davlat xizmatiga kirish" maxsus kurslarini o'tashi va keyinchalik har uch yilda kamida bir marotaba malaka oshirish kurslarini tamomlashi belgilangan. Diagnostikada davlat xizmatchilarining tegishli soha bo'yicha bilim darajasi, kompyuter savodxonligi, xorijiy tillarni o'zlashtirganligi, psixologik diagnozi va intellektuallik koeffitsienti (IQ) kabi ko'rsatkichlari baholanadi. Bundan tashqari, davlat xizmatchisi har yili onlayn va oflayn shaklda o'z malakasini oshirib boradi. Ta'lim xarajatlari davlat budjeti, xalqaro tashkilotlar yoki maxsus grantlar hisobidan qoplanadi. Malakali kadrlarga **reytingiga qarab rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yiladi** (mukofot, lavozimda yuqorilash, ijtimoiy paketlar).

E'tiborlisi shundaki, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestri yuritiladi. "Respublika, hududiy va tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestri" shakllantirildi. Bu - belgilangan yagona ro'yxat (reestr) bo'lib,

u orqali butun mamlakat bo'ylab qaysi davlat idorasida qanday lavozimlar mavjud ekanligi rasman qilib tasniflangan. Har bir lavozim uchun aniq vazifalar, malaka va maosh ko'rsatiladi.

Bu reestr davlat xizmatini "shaffof", "tizimli" va "adolatli" qilishga qaratilgan asosiy huquqiy vosita bo'lib, davlat idoralari ichidagi barcha lavozimlar yagona tartibga keltiriladi va kelajakda raqobatli, samarali fuqarolik xizmati shakllanishiga zamin yaratiladi. 2026-yildan boshlab esa iqtidorli boshqaruvchilar va liderlarni aniqlash uchun "TOP-100" dasturi joriy etiladi. Har ikki yilda bir marta 100 nafar salohiyatli boshqaruv kadrlarini saralab olish bo'yicha Respublika tanlovi o'tkaziladi va g'oliblar bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi.

- Farmonda korrupsiyaga qarshi mexanizmlar va kuchli jamoatchilik nazorati xususida qanday vazifalar ilgari surilgan?

- Farmonda davlat xizmatchilarida korrupsiyaga nisbatan muvofiq munosabatni shakllantirish uchun "halollik vaktsinasi"ni singdirish hamda preventiv mexanizmlarni joriy etish nazarda tutilgan. Bunda korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini baholash mexanizmi joriy etiladi. Jumladan, 2025 yil 1 oktabrdan boshlab davlat xizmatchilarining xorijiy va ichki xizmat safarlarini tashkil etish uchun "Xizmat safari" yagona moduli joriy etiladi. Kadrlar faoliyatida korrupsiyaga qarshi alohida standartlar belgilab beriladi hamda har bir davlat idorasi o'z faoliyatini jamoatchilikka hisobot qilib taqdim etadi.

Raqamlashtirish va texnologik o'zgarishlar borasida esa 1 sentabrdan boshlab "Davlat xizmatchisi" mobil ilovasi ishga tushirilib, masofaviy tarzda kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

- Xotin-qizlarni davlat xizmatiga jalb qilish choralari qanday belgilangan?

- Davlat xizmatiga xotin-qizlarni keng jalb qilish uchun ularning sohaga bo'lgan qiziqishi, manfaatdorligi va ishonchini oshirish yo'nalishi belgilangan. Avvalo moslashuvchan ish rejimlari va masofaviy ishlash imkoniyatlari yaratiladi. Ayollar, nogironligi bo'lgan fuqarolar va yoshlar uchun alohida motivatsion dasturlar joriy etiladi. Har bir davlat tashkilotida **inklyuziv muhit yaratish** majburiy bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya paketlariga (ijara, transport, bolalar bog'chasi yordami) alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, 2030 yilgacha davlat idoralari strategik rejalashtirishni yaxlit tizim bilan qamrab olish 100 foizga yetkazilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatida xotin-qizlarning ulushini 2030 yilgacha 40 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Hozirda, "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyil amaliyotga joriy etilgan hamda davlat xizmatchilari faoliyatining asosiy mezonini etib belgilangan. Biroq shunga qaramay, davlat fuqarolik xizmatida hal etilishi lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud. Xususan:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida bir-birini takrorlovchi funktsiya va vazifalar mavjudligi, ular faoliyatining aniq funktsional chegarasi belgilanmagani, shuningdek, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda kadrlarni joy-joyiga qo'yish bo'yicha qarorlarni qabul qilish aksariyat holatlarda markazlarda hal bo'lishi mahalliy hokimliklar faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

davlat fuqarolik xizmatidagi lavozimlar tahlili va kompetensiya modelining mavjud emasligi tegishli lavozimlarga eng munosib kadrlarni to'g'ri tanlab olish, shuningdek, xodimlarning kasbiy ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda;

davlat fuqarolik xizmatchilari mehnatiga haq to'lashning tegishli lavozimda bajariladigan ishlarning murakkabligi, ahamiyati va natijadorligiga asoslangan zamonaviy tizimi joriy etilmagan;

davlat fuqarolik xizmati jozibadorligining yuqori emasligi, davlat fuqarolik xizmatchilarini motivatsiyalash tizimi yetarli darajada rivojlanmagani kadrlar qo'nimsizligining oshishiga hamda ularning faoliyat samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-sonli farmoni bilan davlat xizmatiga kirishda teng imkoniyat va huquqning belgilanishi natijasida, davlat xizmatining raqobatdoshligini, ochiqligini va professionalligini oshirishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat xizmatiga kirishda barcha fuqarolarga teng shart-sharoitlar yaratib, kadrlarni mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, tanish-bilishchilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlab olish kabi salbiy illatlarning bartaraf etilishiga hamda davlat xizmatiga munosib, chuqur bilimga ega, intiluvchan va yuksak salohiyatli kadrlarni yollash, shuningdek davlat xizmatida kadrlarning xizmat bo'yicha o'sib borishi bilan bog'liq faoliyatda nomzodlarni adolatli baholash, ular orasidan eng munosiblarini tanlashga qaratilgan "meritokratiya" tamoyili qo'llash imkoniyatini kafolatlaydi

Foydalanilgani adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/6445145>
2. "Davlat fuqarolik xizmati" to'g'risidagi qonun <https://lex.uz/uz/docs/6145972>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-son farmoni <https://www.lex.uz/docs/7587464>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi
5. "'O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni <https://www.lex.uz/docs/6600413#6605157>